



QISHLOQ XO‘JALIGI CHIQINDILARIDAN QURILISH MATYERIALLARI TAYYORLASH

prof. Q. X. Majidov, dots. Egamberdiyev M. S., ass. Akmalov M.G.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Buxoro sh., O‘zbekiston Respublikasi

Annotatsiya: *ilmiy maqolada qishloq xo‘jalik chiqindilarini yig‘ish, saralash, qayta ishlashga tayyorlash va qayta ishlar muammolariga bag‘ishlangan.*

Kalit so‘zlar: *Chiqindi, boshoqli o‘simliklar, makkajo‘xori boshoqlari, kungaboqar, somon briketi, sement, qurilish qumi.*

Butun jamiyatimizning intellektual va ma‘naviy salohiyatini yuksaltirishda fan va talim muhim ahamiyatga ega. Ilm-fan rivojlanmagan joyda jamiyatning barcha sohalarda orqaga qaytishi, qoloqligi kuzatiladi. Sharqning buyuk mutafakkirlari: "Eng katta boylik - aql va ilm, eng katta meros - yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bilimsizlikdir", - deganlar. Bilimga, ma‘rifatga, yuksak madaniyatga intilish barchamiz uchun hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Joriy yilda matematika, kimyo hamda biologiya, geologiya kabi yo‘nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlarni keng rivojlantirish chora-tadbirlari ko‘rildi, olimlar uchun barcha shart-sharoit yaratildi. Shuningdek, fundamental innovatsiyalar uchun seminar grantlarini taqdim etish mexanizmini tubdan qayta ko‘rib chiqish zarur.

Ilmiy yutuqlarning elektron platformasini, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish zarur. Har bir oliy talim va ilmiy-tadqiqot muassasasi yetakchi xorijiy universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi zarur.

O‘zbekistondagi agrosanoat majmualari har yili bir million tonnagacha chiqindi hosil qiladi. Ular hozirgi kunda utilizatsiya qilinmoqda yoki ko‘milmoqda, yuzdan bir qismigina qayta ishlash uchun ishlatiladi. Agrosanoat majmuasi chiqindilariga boshoqli o‘simliklar (bug‘doy, arpa, suli), makkajo‘xori boshoqlari va poyalari, kungaboqar kiradi. Agar foydalanilmagan chiqindilarni elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun sarflanganda, O‘zbekistonning elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini 30 kun davomida taminlash mumkin bo‘ladi.

O‘simlikchilik mahsulotlarining bu chiqindilaridan organik o‘g‘itlar, briketlarda yoqilg‘i olish, yem, qoplamali plita ko‘rinishidagi yo‘llarni qayta tiklash uchun ishlatilishi mumkin, bundan tashqari, chiqindilarni (qurilish materiallari uchun) ishlatish ham mumkin bo‘lib, ulardan ilmiy jihatdan foydalanish katta samaradorlikka olib kelishi tabiiy.

Ma‘lumki, ota-bobolarimiz bug‘doy, arpa, suli somonidan chorvachilik sohasida yem-xashak sifatida ishlatish bilan bir qatorda uy-joy qurishda o‘choq-tandirlarni yasashda, tomlarni, devorlarni suvashda (andava qilishda) ustalik bilan foydalanishgan.

Keyingi vaqtlarda qurilishlarda devor, tom kabi elementlar sement, qurilish qumi, suvdan foydalanib, suvoq ishlari amalga oshirilmogda. Bu jarayonni bajarishni iqtisodiy jihatini hisobga olsak, har bir xonadon, oila uchun bir necha millionlab so‘m sarflanadi. Ustalariga beriladigan ish haqqidan tashqari. Agar bu ishlarni bajarishda qurilish xom ashyosi sifatida somon ishlatilsa har bir oila budjetini hisobiga bir necha millionlab so‘m tejalishi bilan birgalikda mustahkam qurilish inshootini barpo etish mumkin. Chunki bu holda qurilish materiallari sotib olinmaydi. Darhaqiqat, misol uchun tomni shuvash uchun qum (tuproq), somon, suv kabilarning aralashmasi bo‘lsa kifoya.



Ayni paytda zamon talablariga binoan uying uyning ichki qismi ayrim devorlarini aksariyat hollarda gipsokarton bilan qoplanadi va bu qurilish materiallarining bir muncha ham muddatga chidamliligi, havo o'tkazish darajasi pastligi, namlikka bardoshlik xususiyati 0.05% ligi, tashqi ta'sir etuvchi kuchlarga bardosh bera olish qobiliyati nihoyatda sustligini ta'kidlashni ushbu risolada alohida ko'rsatish joiz deb bildik.

Qishloq xo'jaligi agrokompleksi tarkibiga kiruvchi mavjud adabiyotlarni o'rganish va ilmiy tomonidan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ekin chiqindilari yoqilg'i manbai bo'lib xizmat qilishi mumkinligi ta'kidlangan. Kichik maydondagi o'rmon plantatsiyalari bo'lgan ko'pgina qishloq tumanlari uchun tabiiy gaz yoqilg'i o'rniga briketlar shaklida ishlatish va somon, don ekinlari, makkajo'xori, kungaboqarning yonishi paytida issiqlikni qayta tiklash quvvatiga ega bo'lgan 16 MJ / kg ishlatiladi. Taqqoslash uchun yog'ochning issiqlikni takrorlash qobiliyatini o'rtacha 17,5-19,0 MJ / kg ni qayd etamiz. Skandinaviya mamlakatlari (Shvetsiya, Daniya) uzoq vaqtdan beri samarali yoqilg'i manbai sifatida somon briketlaridan foydalangan va ishlab chiqarilgan.

Yevropa Ittifoqi sanoat majmuasining chiqindilarni boshqarish amaliyoti tahlili "Ko'proq qayta ishla – kam yondir", (Shvetsiya, Ekorayon, Stokgolm, Germaniya, "Yashil nuqta", Daniya, Gollandiya, Ukraina, Rossiya va O'zbekistonda shuni ko'rsatadiki, Rossiyaliklarning bugungi kunda chiqindilar bilan ishlash tajribasi - bu chiqindilarni boshqarish tajribasi tahsinga loyiqdir. Chiqindilarni boshqarish ulardan xalq-xo'jaligida optimal tarzda foydalanish natijasiga asosan quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- chiqindilarni qayta ishlash, xususan, agrosanoat majmuasi pirovardida "poligon"ga yo'naltirilganligi;
- o'z navbatida "boshqaruv" yoki ko'plab faoliyat imkoniyatlarini o'z ichiga olganligidir;

Mahalliy respublikalarda, xususan, Ukraina NIRS, sobiq SSSR respublikalari shaharlari NIRP, juda kam adabiyotlar mavjud va oz miqdordagi tadqiqot ishlari olib borilgan va deyarli oz miqdorda ishonchli dalillar keltirilgan. Natijada boshqa bir qator tushunchalar: masalan, hozirgi zamon "qayta foydalanish", "qayta ishlash" kabi ilmiy asoslanmagan tushunchalar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar

1. Степанова С.В., Шайхиев И.Г., Ифгузова С.В. «Очистка модельных стоков содержащих ионы тяжелых металлов шелухой пшеницы». Вестник Белгородского государственного технологического университета им.П.Г.Шухова. 2014.№6.с.183-187.
2. Расмий сайт. Ru.condocs.org URL: [http:// ru. Condocs/ org/docs/ index-301720/hm/](http://ru.condocs.org/docs/index-301720/hm/)
3. Перспектива создания биоэнергетической индустрии переработки сельскохозяйственных отходов //сайт Топливо-энергетического комплекса Роспи. URL:[http:// nasep.ru./ novosti/](http://nasep.ru/novosti/)
4. Тугов А., Эскин Н., Литун Д., Федоров О. "Не превратить планету в свалку" – режим доступа: <http://www/nkj.ru/archive/articles/10577/>